

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi

Navoiy Davlat pedagogika instituti

“Umumiy tarix” kafedrası

Katta o'qituvchilar :

Hamroyeva S.I. Shirinova F.I.

**Ilk Uyg'onish davri (IX – XII asrlar) Markaziy Osiyo va
Yevropa davlatlari madaniyatining qiyosiy o'rganish
usullari**

(Tarix fakulteti talabalari uchun ilmiy – uslubiy qo'llanma).

Navoiy – 2015

Ilk Uyg'onish davri (IX – XII asrlar) Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari madaniyatining qiyosiy o'rganish usullari deb nomlangan ilmiy – uslubiy qo'llanma umumiy o'rta maktab tarix fani o'qituvchilari hamda pedagogika instituti Tarix fakulteti talabalari uchun Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari ilk uyg'onish davri tarixini o'rganishda yordamchi ilmiy – uslubiy qo'llanma bo'lib, hozirgi zamon talabi asosida o'tishda talabalarga va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga yordam beradi.

Mazkur ilmiy – uslubiy qo'llanma mustaqillik sharoitida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni amalgam oshirishda debocha bo'ladi.

Ilmiy muharrir:

tarix fanlari doktori Temirov G'.T.

Taqrizchilar:

p.f.d., Sh. A. Abdullayeva

NDKI dots. R. Ro'ziyeva

Mazkur ilmiy – uslubiy qo'llanma “Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasining 2015 yil 24 iyun yig'ilishida muhokama qilinib, Navoiy davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashiga muhokama uchun tavsiya etil

KIRISH.

Markaziy Osiyo, jumladan Movarounnahrning qulay jug'rofiy sharoiti, tabiati, iqlimi mintaqada odamlarning uzoq o'tmishda bu yerlarda o'troqlashib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligini, tabiiy sharoitdan kelib chiqib yerlarni sug'orish usuli bilan hosil olganligini ko'rsatadi. Bu esa mintaqada madaniyatning ancha erta, bir necha ming yillar avval shakllanishi ta'minlanganligidan dalolat beradi. Uning yorqin isboti so'nggi o'n yilliklarda arxeologlar tomonidan ochilayotgan shahar vayronalari, moddiy madaniyat qoldiqlari va ibtidoiy bo'lsa – da, san'at asarlaridir.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ***“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini, tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod – ajdodi kimligini, nasl – nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi”***¹. Biz ham ushbu uslubiy qo'llanmani tayyorlashda Movarounnahr va Xurosonda Uyg'onish davri madaniyati tarixini o'quvchilarga o'rgatish orqali ularni o'z Vatanimiz tarixiga, uning yuksak madaniyati tarixiga, milliy qadriyatlariga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida bir qancha manbalarga murojaat qilishga harakat qildik. Zero, biron – bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamdamustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan – avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql – idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan. Shunday

¹ I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq”. 1998. 3 – bet.

aroblardan Uyg'onosh davri madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shgan juda ko'p buyuk shaxslar borki, ularning ilmiy faoliyati va salohiyati haqida ushbu qo'llanmada fikr yuritiladi.

VIII – XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda katta va muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Movarounnahr va Xuroson arablar tomonidan to'lig'cha bosib olinib, arab xalifaligi – imperiyasi tarkibiga kiritildi.

Yerli xalq arab mustamlakachiligiga qarshi to'xtovsiz kurash olib bordi va asta – sekin IX – X asrlarga kelib bu yerda mustaqil davlatlar vujudga kela boshladi. Mustaqil davlatchilik sohasida o'zaro urushlar davomida Somoniylar, Qoraxoniylar, Ma'muniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar birin – ketin hukmronlik qilib, tarix sahnasiga kelib – ketdilar. Lekin shunga qaramay bu davr madaniyati, ma'naviy hayotida juda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdiki, ular nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon Sharqi tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Shuningdek, bizga ma'lumki, G'arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV – XVII asrlarni Renessans – Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko'pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo'lganligidan ko'z yumadilar. Holbuki, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. ***“U Yevropadagidek yangi siyosiy – iqtisodiy jarayon, ya'ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa – da, madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi”².***

Demak, biz IX – XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i, ilk Uyg'onish davri deb atashga ham to'la asosimiz bor. Bu ilk Uyg'onish davri madaniyati siyosiy – iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Ilk Uyg'onish, IX – XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy va ma'naviy rivojida o'chmas iz qoldirdi. Bu tarixiy jarayonni

² Ma'naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2001. 11 – bet.

tarix darslari jarayonida qiyosiy tahlil qilish orqali o'quvchilarda nafaqat millat madaniyatiga, balki o'zga xalqlar madaniyatiga, tarixiga bo'lgan qiziqish, hurmat orta boradi. Bunday his – tuyg'uni o'quvchilarga singdirishda hozirgi zamon o'qituvchisi har bir dars jarayonida zamonaviy dars usullaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'z davrida va hozir ham dunyo xalqlari buyuk allomalarning va olimlarning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasini yuqori baholaydilar. Hozirda ularning ijodi va xalqlarga qoldirgan madaniy va ma'naviy merosi bilan nafaqat Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlari, balki butun jahon madaniyati va san'ati haqli ravishda faxrlanadi. Zero, Prezidentimiz shunday degan edilar: ***“Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”³.***

³ I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq”. 1998. 4 – bet.

Ilk Uyg'onish davri madaniyatining millat ilm – fani va madaniyati taraqqiyotiga ta'siri.

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero, bugunning qadru – qimmati, mohiyati va salmog'i kechagi kun tarozisi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmaganicha hech bir jamiyat ilgarilab rivojlanmaydi.

Dunyo xalqlari tarixi insoniyat taraqqiyoti haqida to'la va batafsil tasavvur, bilim hamda tushunchalar berib, yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib, yetishishida muhim o'rin tutadi. Zotan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustivor sohasidir.

Dunyo xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya'ni tarixda bo'lib o'tgan voqealardan, hodisalardan, turli madaniyat va ma'naviyat sohasida faoliyat ko'rsatgan allomalar, tarixiy shaxslar hayotidan, iqtisodiy taraqqiyotidan, yangi farovon jamiyat qurish yo'lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so'z baxsh etuvchi, saltanatlarni qayta yaratuvchi, o'tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko'z o'ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo'jizadir. Uning ma'naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo'lamiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib dilimizni rag'batlantiruvchi, huslarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe'l – atvorlar dunyosiga oshno bo'lamiz.

Tarixni insoniyat taraqqiyotining dardu quvonchlari, g'alabalaru mag'lubiyatlari, yaratuvchilik qudratiyu barbod etuvchi qora kuchlari, jasorat va xiyonat, oq va qoraning shiddatli to'qnashuvlari haqida hikoyalar bitilgan kundalik daftar deyish mumkin.

Har bir xalq u kattami, kichikmi o'z tarixiga, milliy madaniyatiga ega. Jahon madaniyati har bir xalq madaniyatining, eng yetuk, eng yuksak namunalaridan tashkil topadi. U har bir milliy madaniyatdagi umuminsoniy tomonlarni o'zida mantiqan birlashtiradi, shuning uchun ham ilk Uyg'onish davri madaniyati namoyandalari – Xorazmiy, Beruniy, Farg'oniy, imom al – Buxoriy, at – Termiziy, Abu Ali ibn Sino, al – Motrudiy, Mahmud az – Zamaxshariy, Yevropa madaniyati namoyandalaridan – Vilyam Shekspir, Jordano Bruno, Rembrand, Rafael, Leonardo da Vinchi, Mikalenjelo va boshqalar asarlaridan ularni yaratgan millat va xalqgina emas, butun insoniyat dunyosidagi barcha xalqlar bahramand bo'lib foydalanmoqdalar.

Markaziy Osiyo xalqlari ham boshqa xalqlar singari boy madaniy merosga ega bo'lib, bu meros millatimiz madaniyatining taqqiyotiga va yanada rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda.

O'zbek xalqi o'tmishda feodal jamiyat sharoitida madaniyatning barcha sohalarida boy va bebaho boyliklar yaratdilar. Biz ushbu bebaho madaniy boyilkardan bahramand bo'lmasdan turib, ularni o'rganib qalbimizga, ongimizga jo qilmasdan turib, ulkan imkoniyatlar mamlakatida – serquyosh O'zbekistonimizda buyuk davlat barpo eta olmaymiz.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri va har xil izmlardan ozod, zamonaviy dunyoqarashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi.

Tarixan O'zbekiston republikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asrda o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketgan. Ko'p jihatdan esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql – zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlanganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek

millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, tarix, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda. Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoda mashhur. Bular buyuk astronom va matematiklar al – Xorazmiy, Farg'oniy, Javhariy, Marvaziy, Ulug'bek; faylasuf va ilohiyotchi – huquqshunoslar Farobiy, imom Buxoriy, Imom Termiziy, Marg'inoniy, Nasafiy; qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino, tilshunos – shoirlar Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Alisher Navoiy; tarixchilar Bobur Mirzo, Abulg'ozil Bahodirxon, Ogahiy va boshqa ko'pgina ulug' zotlar.

Shu bois hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiya beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan va sayqal topgan.⁴ Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbay bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan – avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy vamadaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Yurtboshimiz o'zining “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari” asarida quyidagicha mulohaza yuritib: ***“Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan***

⁴ I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. t. “Sharq”. 1998y. 3 – bet.

xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi⁵ – degan fikrlarni aytgan edi.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat maktabiga aylanmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql – idrat bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomisiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi tarqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi, bularning barchasi yangidan – yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolayotganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan. O'zbek olimlarining kuch – g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan – ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri tarixi hamda XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni “oqlash” vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalgam oshirishdan iboratdir.

Olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishidan iborat. Ular yangi, kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishga, innovatsiya salohiyatini

⁵I. A. Karimov. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari”. T. “O'zbekiston”. 1997. 137 – 138 – betlar.

mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shmoqdalar. Hozir O'zbekiston Markaziy Osiyodagi yirik ilmiy markazdir. Bu markaz tadqiqot uchun zarur bo'lgan rivojlangan moddiy asosga, keng ilmiy fondga, malakali ilmiy kadrlarga ega. Ularning mehnati butun dunyoga e'tirof etilgan.

Respublikaning ilmiy – tadqiqot majmui akademiya, oiliy o'quv yurtlari va tarmoq yo'nalishidagi 362 muassasani, shu jumladan, 101 ilmiy tadqiqot institutini, oiliy o'quv yurtlaridagi 55 ilmiy – tadqiqot bo'linmalarini, 65 loyiha-konstruktorlik tashkilotini, 32 ilmiy – ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 axborot – hisoblash markazini o'z ichiga oladi. Ilmiy salohiyatning o'zagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasidir. U mintaqadagi yetakchi yetakchi ilmiy va tajribamarkazi bo'lib, yarim asrdan ortiqroq tarixga ega. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin ushbu zaminda yashagan, shu zaminda o'z ilmiy faoliyatini olib borgan allomalarning ilk Uyg'onish davridagi faoliyatini o'rganish, ularni ilm – fan taraqqiyotiga tadbiiq etish natijasi Respublikamizning aql – zakovat salohiyatini rivojlantirishga, xalqaro ilmiy – madaniy aloqalarni kengaytirishga jamiyatshunos olimlarimiz, birinchi navbatda, tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar katta hissa qo'shdilar. O'zbek xalqining etnogenezinini o'rganish va uning xolisona tarixini qayta yaratish, an'analari, turmush tarsi va madaniyatini o'rganish bilan bog'liq ishlar juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Prezidentimiz: ***“O'z aql – zakovat, ilmiy – texnikaviy salohiyatimizni rivojlantirish mamlakatimizni barqaror taraqqiy ettirish omilidir. Biz buni jahondagi obro'li tadqiqot markazlari bilan ilmiy, texnikaviy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish, ko'plab dolzarb muammolar bo'yicha tadqiqotlarni birga o'tkazish bilan bevosita bog'liq deb bilamiz”***⁶, – deb alohida ta'kidlab o'tgan edilar.

⁶ I. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. “O'zbekiston”. 1998. 631- 632 – betlar.

Tarix darslari jarayonida Uyg'onish davri Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari madaniyatining qiyosiy tahlili.

Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari Uyg'onish davri madaniyatining qiyosiy talili masalasini yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan usullar orqali o'rganish yo'llari.

O'zbekiston milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin ta'lim davlat siyosatining ustivor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalgam oshirila boshlandi. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganish bu borada markaziy o'rinni egallaydi. Zero, o'tmishni o'rganmasdan kelajakni yaratib bo'lmaydi. Binobarin, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ***“O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi”.***⁷

Ha, inosoniyat o'zining ko'pasrlik tarixiy murakkab tarixiy taraqqiyotida doimo o'tmish voqea – hodisalarni o'rganib, ulardan zarur xulosalar chiqarib, kamol topgan.

Bugungi kundagi asosiy vazifa “O'zbekiston tarixi” fani bo'yicha yosh avlodni millatning dardiga darmon bo'ladigan, elim deb, yurtim deb yonib yashovchi, mamlakatimizning yuksak parvozigacha zo'r qanot bo'luvchi komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fannini o'qitishning vazifalaridan biri o'quvchilarning milliy ongi, siyosiy, ilmiy – nazariy dunyoqarashini shakllantirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqea – hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiylik prinsiplariga amal qilgan holda munosabat bildirishga qodir hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli barkamol insonni tarbiyalash, yoshlarda xalqimizning madaniy – ma'naviy merosi, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlari, axloqiy fazilatlariga hurmat, otashin vatanparvarlik tuyg'usini, buyuk allomalarimizning jahon taraqqiyoti sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi bilan

⁷ I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq”. 1998. 9 – bet.

faxrlanish hissini yuksaltirish, buyuk merosimizning munosib davomchilari hamda vorislarini tarbiyalash.

Bunda o'qituvchining o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishga ijodiy yondashishi, o'qitishning turlui shakllaridan foydalanishi, ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi milliy pedagogikamizdan va yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalanishi tavsiya etiladi.

Mustaqil milliy davlatchilikning vujudga kelishi, o'zbek xalqi va uning milliy davlatchiligining rivojlanishi, uning siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohada jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini bilib olish, O'zbekiston davlatining sodiq, Vatanga fidoyi farzandini tarbiyalash maktabning bosh vazifasiga aylandi. Unda "O'zbekiston tarixi" asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois, O'zbekiston tarixini yosh avlodning chuqur o'rganishini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ***"... zamon talabi shuki, professor va o'qituvchilar o'zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, balki xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z o'quvchilariga saboq berishlari zarur"***⁸. Shu sababli yangi dasturda umumbashariy qadriyatlar va istiqlool mafkurasi ruhida yoshlarga bilim brish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Barcha zamonlarda barkamol avlod tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni va hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash borasida o'z tariximizdan juda ko'plab dalillar keltirishimiz mumkin. Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani yodga olaylik. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun – qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi,

⁸"Ma'rifat" gazetasi. 1995 yil 11 oktabr.

fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vataniga qalqon bo'ladi. Avvalo bunday fikr yuritish uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir – biriga hurmatda bo'ladi. Ota – ona va farzand, ustozu – shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash lozim. Demak bizning barkamol avlod tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Millatimiz urf – odatlaridagi, qonidagi ma'rifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish xislati bir necha mingga yillar davomida shakllangan va sayqal topgan.

Bobolarning shu kabi o'y – fikrlari tildan – tilga ko'chgan, kitoblarda qolgan. Bundan xalq, ayniqsa, yurtboshilar xabardor bo'lishgan. Chunonchi, Sohibqiron Amir Temur ham buyuk davlat qurishda, ish yuritishda o'tib ketgan bobolarning o'g'itlari, davr donishlarining maslahatlari bilan ishlaganligi tarixiy manbalardan ayon. Butun dunyoga ma'lumki, o'sha davrda ilm – fan rivoji uchun sharoit yaratilgan. Madaniyat rivojlangan, bugun dunyoni lol etayotgan osmono'par minorayu masjidlar bunyod etilgan. Bu davlatni barcha davlatlar eng yuqori madaniyat o'chog'i sifatida tan olishgan, o'z elchilarini jo'natishgan. Elchilarni yuborish mazkur davlatni hurmat qilish va tan olish natijasidir. Bizning mamlakatimizda ham mustaqillik sharofati bilan bobolar og'iti zahirida yosh avlodni tarlim – tarbiyasiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu o'rinda Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimovning sa'y – harakatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Jamiyatimiz buyuk o'zgarishlar sari yuz tutgan bugungi davrda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviyatli, erkin fikrlovchi barkamol yetuk shaxsni tarbiyalash hamda ta'lim – tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish talab qilinmoqda.

O'zbekistonda bu borada so'nggi yillarda anchagina diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash

Milliy dasturi” qabul qilindi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta’lim tizimining asosiy g’oyalarini o’zida mujassamlashtiradi.

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq umumiy o’rta ta’limning barcha bo’g’inlarida o’quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish o’z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Shu bilan birga har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb – hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o’zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o’z fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g’oyalar belgilangan.

Mazkur uslubiy qo’llanmani yaratishdan maqsad ham umumta’lim maktablari tarix darslari jarayonida Markaziy Osiyoda ilk Uyg’onish davri madaniyatini Yevropa uyg’onish davri madaniyati bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida millatimiz tarixining, madaniyatining jahon tarixida titgan o’rni va mavqeyi, ahamiyati haqida o’quvchilarda to’laqonli fikrlarni paydo qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, avlodlarimizdan qolgan madaniy merosimizni, milliy qadriyatlarimizni asrab – avaylash kabi hislarni tarbiyalash yo’llarini yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi usullarda ko’rsatib berishga harakat qilishdir. Avvalo yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan’anaviy usullar haqida fikr yuritamiz.

Ta’lim sohasida yuz bergan o’zgarishlar qatorida pedagogik jarayonning mazmun mohiyati, metodlar ayniqsa keskin o’zgardi. Yangi pedagogik texnologiyalar amalga tadbiiq qilina boshladi.

Ilg’or pedagogik texnologiyalar hozirgi davr ta’lim jarayonini yangi sifat ko’rsatkichlariga olib chiqishi mumkin bo’lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg’or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda – o’quvchi yoshlarning bilim olishiga bo’lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda.

Shunday ekan, maktablarda o’quvchilarga bilim berish ko’nikma va malakalarni hosil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim

jarayonini yo'lga qo'yish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga ulkan hissa qo'shadi.

Shu asnoda yangi pedagogik texnologiyalar asosida test reyting tizimi keng qo'llanila boshlandi. Ularning ta'siri ostida ta'lim – tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari kengaydi. Aniq hisob – kitoblar, o'lchamlar, rejalar, dasturlar, xilma – xil shakllar asosida texnologik yondashuv, shuningdek, darslarni noan'anaviy usullardan foydalangan holda o'tish joriy etildi.

Bugungi kunda noan'anaviy dars usullari 3 asosiy turga bo'linadi:

A). Mutaxassis chaqirish.

B). Muammoli dars o'tish.

S). Boshqa noan'anaviy usullar.

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik tajriba asosidagi bir qancha usullar bo'lib, ularning ko'plari ilg'or (yangi) pedagogik texnologiya asosida interfaol usullar sifatida qabul qilingan. Bularga:

- *** “Masofali ta'lim”;
- *** “Aqliy hujum”;
- *** “Noma'lum shaharga sayohat”;
- *** “Fan ajoyibotlari”;
- *** “Internet”;
- *** “Tarixiy shaharlar tilga kirganda”;
- *** “Oltin uchlik”;
- *** “Sinovga tayyormisan?”;
- *** “Zinama – zina”;
- *** “Zakovat”;
- *** “Zanjir” va hokazo.

Avvalo ba'zi bir interfaol usul haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Masofali ta'lim.

Masofadan o'qitish shakli sirtqi ta'lim singari o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita uchrashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ta'lim muassasasi

va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa va teskari aloqa vositalari va metodlari bilan sirtqi ta'limdan keskin farq qiladi.

Masofadan o'qitish kompyuter texnikasi yoki telekommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda ta'lim muassasasi va o'quvchi orasida kompyuterlararo aloqaning yoki telekommunikatsion aloqaning mavjudligi katta rol o'ynaydi. Bu ikkala texnik vositaning mushtarak holatda ishlatilishi masofadan o'qitishning sifatini yanada oshiradi. Kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi adabiyotlarda kompyuterli telekommunikatsion texnologiyalar deb atashadi.

Masofadan o'qitishning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi uchun quyidagilar ta'minlanishi shart:

- *** o'quv ma'lumotlarini o'quvchilarga o'z vaqtida yetkazish;
- *** o'qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi;
- *** masofadan turib jamoa bo'lib ishlash imkoniyatining mavjudligi;

Bugungi kunda masofadan o'qitishning quyidagi 3 ta turi keng tarqalmoqda.

1. Interaktiv televideniye asoslangan masofadan o'qitish;
2. Kompyuterli telekommunikatsiya (mahalliy va global) tarmoqlariga asoslangan masofadan o'qitish;
3. Multimediya ma'lumotlaridan kompyuterli telekommunikatsion interaktiv tarmoqlarga asoslangan masofadan o'qitish.

Masofadan o'qitishning samaradorligi uni tashkil etuvchi 4 ta belgining sifatiga bog'liq.

- a). O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jarayonlarning samadorligiga;
- b). Bunda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalarga;
- d). O'quv mahsulotlarining sifati va ularni o'quvchilarga yetkazish vositalariga.
- s). Teskari aloqaning samaradorligiga.

Aqliy hujum.

Aqliy hujum biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijobiy qo'llanganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Bu usul orqali shaxs psixologiyasini rivojlantirish mumkin.

“Aqliy hujum” usuli prinsipi juda soda:

Bir guruh ishtirokchilarni to'plab, ular oldiga biror muammoli vazifa qo'yiladi va qatnashchilardan mazkur muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z yechimlarini (fikr, mulohaza) bildirishlari so'raladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilardan g'oyasini, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas.

“Aqliy hujum” usulini qo'llashda asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'lmag'ur bo'lsa ham hisobga olinadi.
3. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bo'lsa shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Konferensiya darslari.

Interfaol darslar orasida konferensiya darslari muhim o'rin tutadi. Konferensiya darslari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, qo'shimcha va mahalliy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi konferensiya darsini o'tishdan avval dars mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy – ommabop adabiyotlarni ko'zdan kechiradi.

Mazkur darsni o'tishdan 10 kun oldin dars mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etadi. E'lon qilingan didaktik o'yinli darsda "Olimlar" rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma'ruza tayyorlash o'quvchilarning ixtiyorida bo'ladi. Darsga tayyorgarlik davomida o'qituvchi tomonidan ijobiy rag'batlantirish va muloqot madaniyati, o'quvchilarning darsga qizg'in ishtiroki muhim omil sanaladi. Ilmiy konferensiya darsini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi "Olimlar" bilan tanishtiradi.
2. Ilmiy ma'ruzalarni tinglash. "Olimlar" mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadilar.
3. Ma'ruzalar muhokamasi. Bunda "Olimlar" va sinfdagi boshqa o'quvchilar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs – munozara o'tkaziladi.
4. Ilmiy konferensiya yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlab, yakunlaydi.
5. O'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirilib, baholanadi.
6. Uyga vazifa berish.
7. Darsni umumiy yakunlash.

"Tayanch signallar".

"Tayanch signallar" orqali dars o'tish usuli o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatibgina qolmay psixologik jihatdan dars o'tishning "oltin qoida"si hissiyot – diqqat – iroda – idrok – xotira – tafakkur qatorining yaxshi ishlashga olib keladi.

"Tayanch signal" usulini o'tkazish qoidalari:

1. O'quvchilar mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

2. qatnashchilar bemalol o'tiradigan qilib joylashtiriladi. Daftar, ruchka, flomaster, qog'oz bo'lishi va ta'minlanishi shart.
3. Guruhlar bo'lib ishlash uchun qulay sharoit bo'lishi kerak.
4. G'oyalar va fikrlar taqdirlanadi.
5. Anglashilmovchilik savollar oldin o'quvchilardan so'rab olinadi so'ngra o'qituvchi xulosa qiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan noan'anaviy dars usullari orqali dars o'tish o'quvchilarda tarix faniga qiziqishni, vatanparvarlikni, mehnatsevarlikni, milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimizga nisbatan hurmat tuyg'ularini oshiradi. Ushbu rejamizga binoan yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladigan noan'anaviy dars usullari orqali Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarida Uyg'onish davri madaniyatining qiyosiy tahlili masalasini pedagogik – malakaviy amaliyot jarayonida olgan bilim va tajribalarimiz asosida ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Buning uchun avvalo “Aqliy hujum” usulida o'tiladigan bir soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqamiz.

Fan: *O'zbekiston tarixi.*

Sinf: *7 – sinf.*

Darsning mavzusi: *Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX – XIII asrlar).*

Darsning maqsadi:

a). Ta'limiy maqsad: *O'quvchilarga nazariy bilimlar berish. “Ilk Uyg'onish” tushunchasi haqida umumiy ma'lumot berish. Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari Uyg'onish davri madaniyatini qiyosiy tahlillash.*

b). Tarbiyaviy maqsad: *Aqliy, tarixiy, madaniy – estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, buyuk allomalarimiz qoldirgan madaniy, ma'naviy merosga, ularning hayoti va faoliyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash.*

s). Rivojlantiruvchi maqsad: *O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakasini hamda fikrlash doirasini kengaytirish.*

d). *O'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish.*

e). Kasbga yo'naltirish: *O'quvchilarni kelajakda buyuk matematiklar, astronomlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, san'atshunoslar, shoir va yozuvchilik kasblariga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish.*

Dars tipi: *Sinash.*

Dars usuli: *Og'zaki bahs, munozara.*

Dars uslubi: *"Aqliy hujum".*

Dars didaktikasi: Markaziy Osiyo xaritasi, Yevropa davlatlari xaritasi, Markaziy Osiyo allomalarining va Yevropa madaniyati namoyandalarining suratlari, ularning asarlari nashr etilgan adabiyotlar, allomalarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ba'zi ma'lumotlar keltirilgan internet xabarlari, qo'shimcha adabiyotlar, tarqatma materiallar, matbuot materiallari.

Darsning borishi:

1. **Tashkiliy qism.** *Oquvchilar bilan salomlashish, navbatchi hisobotini tinglash, davomatni aniqlab, o'quvchilarni darsga jalb qilish.*

2. **Yangi mavzu bayoni:**

Darsning rejasi:

a). **Savollar yozilgan jadvalni osib qo'yib ish boshlash.**

b). **Javoblarni o'zaro tekshirish.**

v). **Kichik guruhlarini o'zaro tekshirish.**

g). **Jamoa bo'lib javob berish.**

d). **Javoblarni yozib olish va muhokama qilish.**

Tayanch tushunchalar: *Madaniy hayot. Madaniy hayotning ravnaqi ta'minlangan omillar. Markaziy Osiyolik allomalarning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.*

Muammo: *Dars jarayonida Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarining Uyg'onish davri madaniyatini rivojlantirgan omillarni qiyosiy tahlil qilib borish.*

Savollar.

1. Somoniylar davridagi qanday tarixiy jarayonlar Xorazmning yuksalishiga, madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi?

2. Nima uchun IX – XII asrlarda yurtimizda ilm – fan yuksak taraqqiy etdi?
3. “Ikkinchi muallim” Farobiy ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Ibn Sinonig jahon fanida tutgan o’rniga baho bering.
5. Beruniy va Zamaxshariy ijodini taqqoslang.
6. Al – Marg’inoniyning “Hidoya” asari haqida nimalar bilasiz?
7. Makaziy Osiyoda va Yevropa davlatlaridagi Uyg’onish davri madaniyati rivoj topgan davrni taqqoslang.
8. Markaziy Osiyoda Yevropa davlatlariga nisbatan Uyg’onish davri ilgariroq boshlanganligining asosiy omillari nimalardan iborat?
9. Markaziy Osiyo allomalari va Yevropa madaniyati namoyandalarining ijodi va faoliyatini taqqoslang.
10. IX – XII asrlarda Markaziy Osiyodagi allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan bebaho xazinasiga baho bering.
11. Yevropa madaniyati namoyandalarining jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasiga baho bering.

Yuqoridagi muammo va savollarga har bir o’quvchi va har bir guruh o’z fikr – mulohazalarini bildirib, bahs – munozara olib boradi. Bunda har bir o’quvchi (guruh) o’z fikrini izohlab, muammoni yechish yo’llarini ilmiy asosda ifodalab berishga intiladi. Bu esa o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, dunoqarashini kengayishiga, ko’proq manbalar, qiziqarli ma’lumotlar olish uchun intilishga, tarixga bo’lgan qiziqishlarini ortib borishiga olib keladi.

Ushbu muammoni yechishda yuqoridagi barcha shartlar bajarilgandan keyin taklif va mulohazalar jamlanib muammoning yechimi aniqlanadi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash uchun: mavzuga oid qiziqarli ma’lumotlar berish, tarix faniga oid turli o’yinlar o’tkazish, faol o’quvchilarga test savollari tarqatish kabi mashqlar bajariladi. Masalan, shunga muvofiq, mavzuga oid quyidagi tushunchalar ustida ishlash mumkin:

** Kalom – islom diniy ta’limotini asoslab beruvchi diniy ilm.*

- * *Metafizika – sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.*
- * *Muallim – soniy – ikkinchi muallim. Farobiy shu nom bilan ulug'langan. (birinchi muallim Aristotel hisoblangan).*
- * *Falsafa – hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o'rganuvchi fan.*
- * *Shayx ur – rais – donishmandlar sardori.*

Uyga vazifa: O'quvchilarning har biriga alohida – alohida markaziy Osiyoda yashab ijod etgan, bugungi kunda xalqimizning faxri va g'ururiga aylanhan har bir allomalar hayotiga oid referatlar yozib kelishi va uni himoya qilish topshiriladi.

Shundan so'ng faol, darsga qatnashgan barcha o'quvchilar bilimiga yarasha baholanadi va darsga yakun yasaladi.

Bunday darsda, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy usullardan foydalanib dars o'tish jarayonida Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarining madaniy Uyg'onish davrini qiyosiy tahlil qilish o'quvchilarda ***“o'z xalqi va boshqa millat vakillarining tarixi va madaniyatiga qiziqish, hurmat qilish ko'nikmasini rivojlantirish, o'z mamlakati va butun insoniyatning madaniy merosini saqlash va ko'paytirishga intilish hissini kuchaytirishdan iboratdir”***⁹. Bundan tashqari “O'zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” ni birgalikda o'rganish Respublikamizning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarining yaxshilanishiga yordam beradi. Bu sohada ishlayotgan xodimlar ishini osonlashtirish, xorijliklar tarixini bilish, ular bilan muloqotning oson ko'chishiga ko'maklashadi. “Jahon tarixi” fani materiallaridan qiyosiy tahlil jarayonida foydalanish yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlar: ***o'zligini anglash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, insof, diyonat, iymon, intizomlilik, o'z qadrini bilish, go'zallikni sevish*** kabi xislatlarni kamol toptirish vositasidir. Bu fan “O'zbekiston tarixi” ning uzviy davomi bo'lib, o'quvchilarning dunyoviy bilimlarni chuqur egallashlarida nihoyatda katta manba

⁹ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T. “Sharq”. 1999 y. 137 – bet.

vazifasini o'taydi. Mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy hayotini teranroq anglashga va uni boshqa mamlakatlardagi ijtimoiy – siyosiy hayot bilan solishtirib zarur nazariy – ilmiy, g'oyaviy – tarbiyaviy xulosalar chiqarishga hamda milliy istiqlol mafkurasining shakllanishiga yordam beradi. Yosh avlodni vatanparvarlik tujida tarbiyalaydi, o'z vatanining qadriga yetishga, uning ozodligi, kelajagi uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lishga yordam beradi. Voqea va hodisalarni, jumladan, Uyg'onish davri madaniyatining ba'zi ko'rinishlari, rivoji o'zaro dialektik bog'liqlikda ekanligini tushunishga yordam beradi hamda “O'tmishsiz kelajak yo'q”, degan tarixiy haqiqatni teranroq anglashga undaydi. O'zbekistonning jahon xalqlari tarixida tutgan o'rnini ilmiy to'g'ri baholashga, uning dunyo hamjamiyatidagi mavqeini yanada oshirish va mustahkamlash hamda inson omillarining faollashuviga ko'maklashadi. O'zbek xalqi tarixini boshqa xalqlar tarixi bilan qiyoslash baynalmilalachilik tarbiyasining muhim vositasidir. Bu fanni o'rganish natijasida boshqa millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning urf – odatlari va tarixini qadrlashga, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish hissini tarbiyalashga yordam beradi. Buning uchun ta'lim muassasalarida tarix darslari jarayonini samarali tashkil etish bilangina erishish mumkin, deb o'ylaymiz. Shu bois, mazkur uslubiy qo'llanmani yaratish jarayonida shu narsani his etdikki, yana shu narsaga amin bo'ldikki, ta'lim muassasalarida tarix o'qitishning samaradorligini oshirishning muhim sharti ta'lim jarayonlarida noan'anaviy darslardan foydalanish sanaladi. Bunday darslardan foydalanish, avvalo, o'quvchilarni ijodkorlikka, faqat darslik bilan emas, balki qo'shimcha adabiyotlar va matbuot materiallaridan foydalanishga undaydi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

Zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilardagi istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida tinmay mehnat qilmog'i lozim deb hisoblaymiz.

X U L O S A .

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi siyosiy – iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davr boshlab berdi. Xalqimizning 10 asrlik madaniyati tarixini kuzatish mustaqillik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirishda tarixdan ko'p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun shubhasiz foydali ekanligini ko'rsatdi.

Avvolombor, haqiqiy ma'naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot uchun xalqimiz mustaqil davlatga ega bo'lishi, qaramlik siquvidan ozod bo'lishi zarurdir. Qaram bo'lib yashagan xalq erkunlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi, u o'zligidan, o'z ruhiy qudratidan mahrum bo'ladi.

Hozirda mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z milliy madaniyatini yuksak darajada rivojlantirishning eng muhim shartini, omilini qo'lga kiritdi va bu mustaqillik yo'lida ikkilanmay qadam tashlab, shiddat bilan bormoqda.

Mustaqillikka erishuv zarur siyosiy, iqtisodiy muammolarni yechishni talab etadi, lekin madaniy – ma'naviy rivojlanishsiz siyosiy – iqtisodiy taraqqiyot umumiy ijtimoiy masalalarni yechishga, so'nggi maqsad – yetuk inson va jamoani yaratishga ojizdir. Shuning uchun madaniy – ma'naviy masalalarga hokimiyat, davlatning maxsus e'tibor berishi, ularni hal etishi, madaniy yuksalish uchun, ma'naviy rivojlanishi uchun, ma'naviy qadriyatlarni kuchaytirish, ularni yaratish va yaratuvchilarga, xalqimizning otmish madaniyati va ma'naviyatini asl holiday o'quvchilarga yetkazishda, uni hech qaysi rivojlangan mamlakatlardan kam emasligini yoshlar ongiga singdiridhga ta'lim sohasi jonkuyarlariga keng imkoniyatlar qidirmog'i talab etiladi. Hozirgi O'zbekistonda bu yo'nalishda ham muhim ishlar amalgam oshirilmoqda. Har bir xalq madaniyatining asoslari, o'ziga xosligi, xususiyatlari, uning tarixi, rivoji davomida shakllanib, "taxlanib" boradi va ularning majmui ushbu madaniyatning milliyligimi belgilaydi. Shuning uchun xalqimiz madaniyatining o'ziga xos tomonlari, mazmunini bilish, uning tarixini, o'tmishdagi rivojlanish davrlarini o'rganishni talab etadi. Hozirgi tarixni bilish, uni ob'yektiv yoritishga bo'lgan talabning kuchayishi milliy madaniyatimizning to'liq mazmunini, tarixini, yutuqlarini o'rganishga ham bevosita oiddir. Bu – milliy

madaniyatimizning jahon madaniyati tarixidagi o'rne va rolini aniqlash uchun ham zarurdir.

Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim – fozil, donishmand, adib va din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Albatta, turli an'analar, arxeologik yodgorliklar, buyumlar va boshqalarda ham xalq ma'naviyati yutuqlari ifodalanadi, lekin yozma adabiyot, qo'lyozmalar bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o'rganish, ularni hozirda nashr etish, targ'ib qilish, yubileylarini o'rkazish, madaniyat tarixini – ma'naviy boyligimizni chuqur bilish ishida nihoyatda muhimdir.

Allomalar, siymolar merosi Markaziy Osiyoda o'tmishda ilm – fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'p qirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm – fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Ularning merosi va madaniyat tarixi yana ilm – fan va diniy qoidalarining bir butunligini tashkil etib, umumiy ma'naviyat rivoji uchun xizmat qila olishini, foydali bo'lishini isbotlaydi. Fan va din xalq madaniyatining turli sohalari, qismlari bo'lib, yagona maqsadga qaratigan holda bir – birini to'ldirishi, xalqni shu yagona maqsadga yo'naltirishga xizmat qilishi mumkin. Diniy taassubning ilm – fan hosobiga kuchayuvi ijtimoiy rivojlanishga, madaniyatning kuchayishiga zarar keltirishini ma'lum tarixiy davrlarda yuz bergan jarayonlar o'zida ifodalaydi.

Oллоh taolo qaysi yurtда, qaysi tuproqда mana shunday zotlarni dunyoga keltiradi? Parvardigori olam buyuk zotlarni O'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa yer yuzida sanoqli. ***“Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki, ona Vatanimiz Ollohning nazari tushgan ana shunday muqaddas diyordir”¹⁰***, - deb Prezidentimiz Imom al – Buxoriy yodgorlik majmuasining

¹⁰ I. A. Karimov. Imom al – Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. “O'zbekiston ovozi”. 1998. 24 oktabr.

ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida aytib o'tgan. Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi. Madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy boylikni boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan bahramand bo'lish, madaniy aloqalarni kuchaytirish, milliy qobig'da o'ralib, umumiy xalqaro aloqalar tuzilmasidan chetda ajralib qolmaslik, milliy madaniyatning umumjahon madaniyat yutuqlari bilan doimo boyib borishida nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Bu ayniqsa, hozirda jahon mamlakatlarining umumiylik, hamjihatlikka intilishi ortib borayotgan bir sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, hozirda yoshlarda mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy – madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarini o'rganish, ularga hirmat – izzatda bo'lishni, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim, o'quv – o'qituv ishlarini olib borish talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy – madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib, yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Kishilik taraqqiyotiga o'zining ochmas ulushini qoshib, mamlakatimiz shuhratini olamga taratib, tarix sahifalariga abadul – abad muhrlangan Muhammad al – Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Imom al – Buxoriy, Imom at – Termiziy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navpiy singari ulug' siymolarni yetishtirgan millat har qancha g'ururlansa arziydi¹¹. Bir haqiqatni o'quvchi yoshlarga tarix darslari jarayonida singdirish lozimki,

¹¹ I. A. Karimov. Ahmad al – Frag'oniylarning haykalining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi". 1998. 24 oktabr.

o'zbek zaminida asrlar davomida fan va madaniyatning turli sohalarida buyuk iste'dodlarning parvarish topgani bejiz emas. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z – o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo asriy an'analar, tegishli shart – sharoit, tafakkur maktabi, madaniy – ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl – nasabida ezgulik va ma'rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo'sh urishi lozim. Biz xuddi mana shunday ajdodlarning vorislarimiz. Ular bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy merosni asrab – avaylash, uni kelajak avlodlarga yetkazish muqaddas burchimizdir.

Bularni yosh avlodga ta'lim jarayonida yetkazish esa har bir zamonaviy pedagogning vazifasidir. Shu bois, bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida shu narsani his etdikki, ta'lim muassasalarida tarix o'qitishning samaradorligini oshirishning muhim sharti ta'lim jarayonlarida noan'anaviy darslardan foydalanish sanaladi. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda ushbi bitiruv malakaviy ishimizda tarixiy ta'lim – tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan fikr yuritdik.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda, tarix ta'limida quyidagi noan'anaviy dars usullarini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. “Masofali ta'lim”, “Aqliy hujum”, “Noma'lum shaharga sayohat”, “Fan ajoyibotlari”, “Internet”, “Tarixiy shaharlar tilga kirganda”, “Oltin uchlik”, “Sinovga tayyormisan?”, “Zinama – zina”, “Zakovat”, “Zanjir” va hokazo. Bunday usullarda dars o'tish o'quvchilarni mustaqil ishlash, o'zi yashab turgan hudud tarixi, madaniyatini o'rganish va tarix faniga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Biz muammoli darslardan “Tayanch signallari” usulida dars o'tish haqida fikr yuritib, bunday darslarni ko'proq yuqori sinflarda qo'llash orinli degan xulosaga keldik. Chunki, yuqori sinf o'quvchilarning fikrlash doirasi, bilim saviyasi, iqtidori ancha yuqori bo'ladi. Quyi sinflarda olgan bilimlaridan o'z o'rnida foydalana oladilar.

Xullas, hozirda yoshlarda mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy – madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy

madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakatlar madaniyati yutuqlarini o'rganish, ularga hurmat – izzatda bo'lishni, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim, o'quv – o'qituv ishlarini olib borishni talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy – madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T. "O'zbekiston" – 1992.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. "O'zbekiston" – 1993.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. "O'zbekiston" – 1993.
4. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. "O'zbekiston" – 1994.
5. I.A.Karimov Istiqlol va ma'naviyat.T. "O'zbekiston" – 1995.
6. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. "O'zbekiston" – 1995.
7. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. "O'zbekiston" – 1995. .
8. I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari". T. "O'zbekiston". 1997.
9. I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari.T. "O'zbekiston". 1998.
10. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. "Sharq" nashriyoti. 1999.
11. I. A. Karimov. Ahmad al – Frag'oniy haykalining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi". 1998. 24 oktabr.
12. I. A. Karimov. Imom al – Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. "O'zbekiston ovozi". 1998. 24 oktabr.
13. Muhammad ibn Muso al – Xorazmiy. Tanlangan asarlar. T. "Fan", 1983.
14. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 – jild. (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). T. 1968.
15. Sh. Shomuhamedov. "Fors – tojik adabiyoti kassiklari". T. 1963.
16. T.N. Qori Niyoziy. O'zbek xalqining madaniy merosi. T. 1960.
17. Ma'naviyat yulduzlari. T. A. Qahhor nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
18. A. Nabiyeu. Tarixiy o'lkashunoslik. T. "O'qituvchi". 1979.

19. F. Sulaymonova. “Sharq va G’arb”. T. “O’zbekiston”. 1997 y.
20. T. Salimov. S. Mahkamov. Jahon tarixi. 7 – sinf. T.”Sharq”. 2002.
21. A. Muhammadjonov. Q. Usmonov. “Ozbekiston tarixi”. T. “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
22. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. T. “Sharq”. 1999 y. 137 – bet.
23. Z.A. Abdiyeva. Geografiya darslarida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish. (O’quv uslubiy qo’llanma). Navoiy – 2005.
24. “Ma’rifat” gazetasi. 1995 yil 11 oktabr.
25. “Oz’bekiston ovozi” gazetasi. 1998 yil 24 oktabr.

MUNDARIJA

- 1. Kirish _____ 3-5 betlar**
- 2. Ilk Uyg'onish davri madaniyatining millat ilm – fani va madaniyati
taraqqiyotiga ta'siri _____ 6-10 betlar**
- 3. Tarix darslari jarayonida Uyg'onish davri Markaziy Osiyo va Yevropa
davlatlari madaniyatining qiyosiy tahlili _____ 11-23 betlar**
- 4. Xulosa _____ 24-28 betlar**
- 5. Foydalanilgan adabiyotlar _____ 29-30 betlar**